

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Djaksilikova Aygerim Bakitjan qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti

Qozoq tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan axborot vositalaridan qo'llanish ularning samaradorligi yuzaga keltirish yuzasidan fikriga mulohazalar mavjud. Shuningdek, maqolada ta'lim muassasalarining ijtimoiy faoliyatini axborot-kommunikatsiyalari bilan uyg'un holda texnologiyalardan unumli va tizimli ravishda foydalanishning dolzarb masalalari yuzasidan fikrlar mavjud. Shunga ko'ra, axborot kommunikatsiya vositalarining samarali qo'llashning zaruriyati yuzasidan qo'llanmalar, vositalar hamda axborot-kommunikatsiyasining saytlari va audio video materiallar bilan ishlash yuzasidan tavsiyalar mavjud. Elektron kutubxona, multimedia darsliklarning ta'lim tizimiga targ'ib etilishi, darsliklarning esa audio video mahsulotlari bilan boyitilishi yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar mavjuddir. Maqolada axborot texnologiyalarining qo'llanish doirasida chet el va milliy tajribalar yuzaga keltirilishi mavzu doirasida kamchiliklar va ularning bartaraf etishdan qarashlar mavjud.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiyalari, pedagogik mahorat, o'qitish texnologiyalari, audiovizual dasturlar, multimediyali darslik, elektron qo'llanma

KIRISH

Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida axborot vositalarining ahamiyati kattadir. 2019- yilda dunyo hamjamiyatida amalda bo'lgan siyosiy vaziyatga ko'ra ta'lim jarayonida zamonaviy texnologik vositalarni qo'llanishiga ehtiyoj katta ekanligini ochiqlashdi. Shunga ko'ra qo'shimcha elektron zaxiralarini shakllantirish, elektron ma'lumotlar va kutubxonalarining yaratilishi, elektron kutubxonalarining bazalarini yaratish va ularni yanada boyitish masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Tabaqalashtirish jarayonida maktab ta'limi va o'rta ta'lim, oliy ta'limning o'zaro farqli jihatlarini unutmagan holatda har bir tizim uchun vositalar va elektron darsliklarni yaratilishi haqida qarashlar mavjud. Multimedia darsliklarining o'quvchi-yoshlar hayotida tutgan o'rni va ular orqali o'zlashtirilayotgan bilim va tajribalarining amaliyotga tadbiiq etilishi katta ahamiyat kasb etadi. Fan texnika va texnologiyalarining ilg'or yutuqlarini foydalangan holatda o'quvchi yoshlarining ta'lim jarayonida ham bilim olishi va hamda o'zini o'zi rivojlantiruvchi individual mashg'ug'otlar bilan bandligini ta'minlash, baholash tizimlarida katta rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta'lim jarayonini isloh qilish va ta'limni yanada rivojlantirishga qaratilgandir. Bu borada prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning PQ-2909, PQ-3151, PQ-3775-sonli qarorlariga ko'ra zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish va bu borada axborot texnologiyalarining o'rnini xususida fikrim va mulohazalar yuritilgan. Zamonaviy ta'lim ishini tashkil etishda maktab ta'limi, o'rta ta'lim, oliy ta'limning farqi jihatlarini inobatga olgan holatda elektron zaxiralarni shakllantirish, ma'lumotlar bazasi va kutubxona shakllarini yuzaga keltirishda axborot-kommunikatsiyalarining ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Ta'lim jarayonida chet el tajribalarini qo'llash va ularning o'quv-uslubiy ishlarini takomillashtirish, internet texnikalardan foydalanish, axborot texnologiyalarining psixologiya va ijtimoiylik prinsiplarini saqlagan holatda qo'llanish darajalari belgilab berilgan. Kompyuter vositalarida ishlashda ilg'or texnologik vositalar va metodik uslublarning qo'llanishi, ularni baholashda ochiqlik oshkoralik katta rol o'ynaydi. Axborot berilishi, axborot qabul qilinishi uzatilishida katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga tadqiqotlarning amaliyotga oshirilishi zamonaviy kommunikatsiya vositalarining shakllanishida axborot texnologiyalarining o'rnini kattadir. Aytish lozimki har xil turdagi ijtimoiy saytlar bilim berish va bilimni tekshirishga qaratilgan o'quv dasturlari va turli xil integratsiyalashgan, uslublashgan metodlarning qo'llanishi ham yaxshi samaradorlik yuzaga keltiradi. "Ta'lim berishning bunday taraqqiyot bosqichi sifat jihatidan mutlaqo yangi texnologiyalarni samarali qo'llash zaruriyatini talab etmoqda. Aynan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarishning omili sifatida ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Talabalarni tabaqalashtirib o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashda quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

-qo'shimcha elektron zaxiralarni, ma'lumotlar va kutubxonalarni yaratish, tarmoqdan axborotni izlashni ta'minlovchi maxsus dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kerak;

-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy ishlarini takomillashtirish, internetdan foydalanish, axborot texnologiyalari va psixologiya sohalari bo'yicha mutaxassis bilan hamkorlikni o'rnatish;

-fan-texnika va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish;

-kompyuter vositasida o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol metodlarni qo'llash;

-baholashda talabalarni faolligi va mustaqil ishlash qobiliyatiga alohida e'tibor qaratish".[1]

NATIJALAR

Ta'lim jarayonida axborot vositalari, audiovizual materiallardan foydalanish sohada amalga oshirilayotgan ishlar - insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, texnik bilimlarni rivojlantirish texnologiyalari, ta'lim va tarbiyaning zamonaviy ruhida amalga oshirib borishi ko'zda tutiladim. Multimediali texnologiyalar ta'lim jarayoni bilan aloqadordir. Bu borada yevropa tajribasini o'rganish va ularning milliy dastur asosi shakllanayotgan ta'lim tizimini kompetensiya va kompetensiyaviylik asosida yuzaga keltirishning o'rganish lozim. Pedagogik mahorat va kasbiy tajribadan foydalangan holatda umuminsoniy prinsiplarini yuzaga kelishi va o'quvchilarda nutqiy faoliyati shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni kattadir. Yanada bilim shaklning ko'rish, eshitish, ushlab, his qilish orqali o'rganilish darajasini unutmagan holatda o'quvchilarga tinglab tushunish mahoratni shakllantirish borasida audio vizual mahsulotlarini yuzaga kelishi katta ahamiyat kasb etadi. Yangilangan maktab darsliklarining ushbu tartibda chop etilishi ham so'zimizning isbotidir. "Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoni bor;
- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- Ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- O'qituvchi sinfda bo'lishi shart emas;
- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi".[2]

MUHOKAMA

Bugungi kunda ta'lim jarayonida multimediyali texnik vositalardan foydalanish ham kenga ahamiyat kasb etadi. Bu borada adabiyot darsliklarida kitob treylerlarning yaratilishi va o'quvchilarga topshiriq sifatida berilishi katta samaradorlikni yuzaga keltiradi. Ona tili darslarida esa matnlarning audio vizual ishlanishi va nutqiy kompetensiyalarining axborot-kommunikatsiya vositalari bilan yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga nutqni axborot texnologiyalari bilan boshqarish, matnlarni to'g'ri o'qish texnikasi, mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalari bilan ishlashish, videografik dizaynlar bilan ishlashish ayni kasbga yo'naltirish bilan bog'liqdir. "Talabalarning mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda plakatlar, chizmalar, namunalar, yo'riqnoma texnologik xaritalar, ko'rgazmali texnik vositalardan, kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va dasturlashtirilgan elektron didaktik vositalardan foydalanib, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ko'zda tutiladi. Hozigi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash,

o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi".[3] Shuni unutmagan holda hozirgi zamondagi axborot vositalaridan topilayotgan daromad va ularning yaratayotgan vositalarga bo'lgan ehtiyoj ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra o'quvchilarda grafik dizayn, video mahsulotlarini tayyorlash, raqamli kameralar va ovoz kuchaytirgichlar bilan ishlash turli formatlarda saqlash tarqatish yuzasidan bu borada animatsiya, matn grafika va video, audiolar, animatsiyalar bilan aloqadordir. Animatsiya multimediyaning ikkinchi shakllardan biridir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, axborot texnologiyalari orqali tarqalishi va chizmalar hududlar, obyekt va subyekt o'rtasidagi munosabat shakllarini harakatli va harakat tasvirida yuzaga keltiradi. Videolar esa maxsus texnologiya orqali amalga oshirilib ma'lum bir axborotlarning belgisi yoki tarqatilishida qo'l keladi. Audiografikalar esa qo'shimcha axborot tarzida xizmat qilish va ularni shakllantirishda bosh omil vazifalarni bajarib kelmoqda. Yanada matnlarning multimediali shaklda berilishi bugungi kunda kitob o'qish masalasiga berilayotgan e'tibor va multimediyaga berilayotgan e'tibor bilan uyg'un holatni yuzaga keltiradi. Multimedialar orqali matn o'qitish texnologiyasi bugun kunning dolzarbligini yuzaga keltiradi. Bunga sabab o'quvchilar audiolari orqali eshitishning bilim shakllarini yuzaga keltirayotganda ko'proq video mahsulotlarni tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan o'rganishni afzal ko'rishmoqda. Bu mavzuda olimlarning fikriga tayanish, majburiy texnika va tajribalarni qo'llash lozimdir.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamasaliyev Mirzoulug' Mirsaidovich Q, Elboyeva Shaxnoza Buriniyozovna. Oliy ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* – 2021
2. Maqsudov Ulug'bek, Eraliyev Yo'ldoshali, Qosimova Gulzoda. Ta'limda multimediali vositalardan foydalanishning pedagogik xususiyatlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* – 2022
3. Muzaffarova Gulhayo Ikromovna. Texnologiya ta'lim praktikumi fanini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* - 2022